

**O'TKIR HOSHIMOVNING OBRAZ YARATISH MAHORATI**  
(“Nur borki, soya bor” asari misolida)

*Bekmurodova Nilufar Dilshod qizi,*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: [quvonchbekbekmurodov@gmail.com](mailto:quvonchbekbekmurodov@gmail.com)*

*Yusupov Sardor Shodi o'g'li,*

*ilmiy rahbar, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning “Nur borki, soya bor” asari misolida yozuvchining obraz yaratish mahorati tahlil qilingan. Asardagi qahramonlarning ichki dunyosi, ularning xarakteri va badiiy obraz sifatida gavdalanish jarayoni turli badiiy vositalar orqali ochib berilgan. Muallifning qahramonlarni realistik tasvirlash uslubi, ularning ruhiy kechinmalarini chuqur ochib berishi, xalq tiliga yaqin uslubda yozishi hamda monolog va dialoglar orqali xarakter yaratish mahorati atroficha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Sherzod va Sayfi Soqiyevich obrazlari tahlil qilinib, ular orqali jamiyat muammolari,adolat va insofsizlik, insoniylik va manfaatparastlik kabi qarama-qarshiliklar yoritilgan. Maqola O'tkir Hoshimov ijodining badiiy jihatlarini o'rghanishga qaratilgan bo'lib, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yozuvchining uslubiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar.** O'tkir Hoshimov, obraz yaratish, “Nur borki, soya bor”, badiiy vositalar, qahramon, yozuvchi uslubi, adabiyotshunoslik.

**O'TKIR HOSHIMOV'UN KARAKTER YARATMA USTALIĞI**  
(“Işık varsa, gölge de vardır” eserinden örnek olarak)

*Bekmurodova Nilufar Dilshod kizi,*

*Özbekistan-Finlandiya Pedagoji Enstitüsü öğrencisi*

*Yusupov Sardor Shodi o'g'li,*

*bilimsel danışman, Özbek dili ve edebiyati bölümünden asistanı*

**Özet.** Bu makalede yazarın imaj becerisi, O'tkir Hashimov'un “Işık Var, Gölge Var” adlı eseri örneği üzerinden analiz edilmektedir. Eserde karakterlerin iç dünyası, görsel bir形象 olarak ilişkiselleştirme süreci çeşitli materyallerle ortaya çıkarılıyor. Yazarın karakterleri gerçekçi bir şekilde tasvir etme yöntemi, manevi deneyimlerini derinlemesine açıklama yöntemi, yerel dilde güncel programlar ve monologlar ve diyaloglar aracılığıyla analiz becerileri ayrıntılı olarak anlatılmaktadır. Makalede Sherzod ve Sayfi Sokiyeviç'in karakterleri incelenmeye ve bunlar aracılığıyla toplumsal sorunlar, adalet ve sahtekarlık, insanlık ve kişisel çıkar gibi zıtlıklar vurgulanmaktadır. Makale, Otkir Hoshimov'un eserinin becerisinin incelenmesine ayrılmıştır ve edebiyat çalışmaları açısından yazarın metodolojisini etkili bir şekilde ortaya çıkarmaya hizmet etmektedir.

**Anahtar kelimeler.** O'tkir Hashimov, imaj yaratma, “Işık var, gölge var”, sanatsal araçlar, kahraman, yazarın üslubu, edebi çalışmalar.

**МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ  
ЎТКИРА ХОШИМОВА**  
(На примере рассказа «Есть свет, есть тень»)

*Бекмуродова Нилуфар Дишиод кизи,*

*Студентка Узбекско-Финского педагогического института*

*Юсупов Сардор Шоди угули,*

научный руководитель, ассистент кафедры Узбекского языка и литературы

**Аннотация.** В данной статье анализируется авторское образное мастерство на примере произведения Откира Гашимова «Есть свет, есть тень». Внутренний мир героев произведения, процесс персонализации как визуального образа раскрывается в различных материалах. Подробно описан авторский метод реалистического изображения героев, глубокое раскрытие его душевных переживаний, новейшие программы на просторечном языке, навыки анализа через монологи и диалоги. В статье анализируются характеры Шерзода и Сайфи Сокиевича, через них выделяются такие контрасты, как социальные проблемы, справедливость и нечестность, человечность и корысть. Статья посвящена изучению мастерства творчества Откира Хошимова и с точки зрения литературоведения служит эффективному раскрытию методологии писателя.

**Ключевые слова.** Откир Хошимов, создание образа, «Есть свет, есть тень», художественные средства, герой, писательский стиль, литературоведение.

## THE ART CHARACTER CREATION BY O'TKIR HOSHIMOV (On the example of the work "Where there is light, there is shadow")

Bekmurodova Nilufar Dilshod qizi

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute

Student of Uzbek Language and Literature

Yusupov Sardor Shodi o'g'li,

Scientific advisor, assistant of the Department of Uzbek Language and Literature

**Abstract.** This article analyzes the writer's image skills using the example of Otkir Hoshimov's work "There is light, there is shadow". The inner world of the characters in the work, the process of their embodiment as personal and figurative images are revealed in various materials. The author's realistic style of portraying the characters, his deep disclosure of their spiritual experiences, his ability to analyze through programs in the folk language, and his skills of monologues and dialogues are thoroughly examined. , the article analyzes the images of Sherzod and Sayfi Sokihevich, through which they illuminate such contradictions as social problems, justice and injustice, humanity and self-interest. The article is devoted to studying the skills of Otkir Hoshimov's work and serves as a methodological and effective disclosure of the writer from the point of view of literary criticism.

**Keywords.** Otkir Hoshimov, image creation, "There is light, there is shadow", artistic means, hero, writing style, literary criticism.

Adabiyot inson qalbining eng chuqur sirlarini ochib beruvchi san'at turi hisoblanadi. Yozuvchi esa o'z asarlari orqali hayotning yorug' va qorong'u jihatlarini inson kechinmalarini hamda ijtimoiy muammolarni aks ettiradi.

O'tkir Hoshimov – XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida inson ruhiyati, hayotiy sinovlar va jamiyat muammolari asosiy o'rinn tutadi. Uning "Nur borki, soya bor" asari ham ana shunday hayotiy muammolarni aks ettirgan badiiy asarlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqola O'tkir Hoshimovning ushbu asardagi obraz yaratish mahoratini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Yozuvchi qahramonlarning ichki olamini qanday ochib beradi? Ular o'quvchilarga qanchalik ta'sir qilishi mumkin? Muallif qaysi badiiy vositalar yordamida qahramonlarni jonlantiradi? Ushbu maqolada aynan shu kabi savollarga javob izlanadi.

Obraz – bu adabiy qahramon, yozuvchi tomonidan yaratilgan xayoliy yoki real shaxs. Yozuvchi obrazni faqat tashqi ko'rinishi bilan emas, balki uning his tuyg'ulari, ichki olami, qalb kechinmalari, xarakterlari va hayotga bo'lgan munosabati bilan tasvirlaydi. [1, 62 b.]

O'tkir Hoshimovning obraz yaratish uslubi o'ziga xosligi va hayotiy ekani bilan ajralib turadi. Uning qahramonlari sun'iy yoki bo'rttirilgan emas, balki haqiqiy insonlar kabi his etiladi. Ijodkorning uslubi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: qahramonlarning realistik tasviri, ularning ruhiy kechinmalarini chuqur ochib berish, xalq tiliga yaqin uslub, monolog va dialoglar orqali xarakterlar ochilishi hamda qahramonlar va muhit uyg'unligi.

"Nur borki, soya bor" asarida ham ijodkor obrazlarning ichki dunyosini o'ta tabiiy va ishonarli tarzda ochib bera oladi. Undagi qahramonlar faqat tashqi harakatlar bilan emas, balki o'z fikrlari, ichki monologlari orqali ham gavdalanadi, hayotdagি muammolar bilan kurashadi, jamiyatdagi turli bosimlarni boshdan kechiradi. Misol uchun asardagi bosh qahramon – Sherzodni olaylik.

Ijodkor Sherzod obrazni tirishqoq, o'ta o'jar, kuyinchak vaadolatsizlikka chidab tura olmaydigan, qalbi toza hamda qalami o'tkir yozuvchi sifatida gavdalantiradi. Asardan olingan quyidagi dialog o'quvchining e'tiborini jalb qilmasdan qolmaydi:

...Men bilolmay qoldim, – dedi Sherzod ovozi titrab. – Palatada bo'sh joy tursa-yu, kasal yo'lakda yotsa?

Bo'lim mudiri:

– Xotirjam bo'ling, joy bo'sh qolmaydi, yoki o'zingizni joyingizni bo'shatib bermoqchimisiz?

Sherzod bu odam yarim hazil, yarim ermak ohangida gapirayotganini tushundi-yu, bolaligidan qoniga singib ketgan qaysarlik lop etib yuziga tepdi.

– Bo'pti, bo'shatib beraman! Faqat men yo'lakda emas manavi devanga chiqib yotaman!

Bo'lim mudiri Sherzodning yelkasiga qoqib:

– Qiziq odam ekansiz! – dedi. Ammo bu gapni kinoya ohangida emas, samimiy aytdi. – Bu bizning ishimiz, birodar. Kasalni biz davolaymiz, siz emas!

– Bilaman, dedi Sherzod bo'g'iq ovozda, tanasini davolaysiz, ruhini o'ldirasiz.

– Tushunmadim, dedi mudir qoshini chimirib.

– Nimasini tushunmaysiz?! – Sherzod keskin qo'l siltadi. Ikki kun yo'lakda yotgan odam, nega meni tayyor joyga olishmadi, deb o'ylamaydimi? Men o'sha zormanda joyga loyiq emas ekanman-da, deb ko'ngli cho'kmaydimi?! [2, 9 b.]

Ushbu parchada Sherzodning o'ziga begona inson taqdiriga befarq emasligi va unga nisbatan bo'layotgan adolatsizlikka qarshi noroziligi yaqqol ko'rindi.

Asarda bosh qahramon sifatida yana bir obraz ko'zga tashlanadi. Bu – Sayfi Soqiyevichdir.

Ushbu obrazni O'tkir Hoshimov lagabardor, hamma narsani pul bilan bog'laydigan, adolatsiz, dimog'dor, indallozini aytganda, salbiy qahramon sifatida gavdalantiradi. "Bu dunyoda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring bo'lsin" iborasi uning hayotdagи shiori desak mubolag'a bo'lmaydi. Sayfi Soqiyevichning Sherzod bilan bo'lган dialogdagi parchaga diqqat qilaylik:

- Yoshsiz, uka, yoshsiz! Hozir hamma shunaqa qiladi! Hamma! Baliq ham dumini likkilatmasa suza olmaydi. Dunyoda murosa-yu madora degan gap bor. Naynov, ahmoq. Lekin ahmoq bo'lgani bilan amali bor. Butun boshli Gortorgning mudiri! Murosa qilmasam bir cho'qiydiyu, uchiradi-yuboradi. Bu dunyoda yo zaring bo'lsin, yo zo'ring bo'lsin. Shundan boshqa hammasi bir pul [2, 90 b.]

Ushbu parcha orqali ijodkor Sayfi Soqiyevichning barcha xislatlarni namoyon qila oladi. Asar nomi ham qaysidir ma'noda mazkur obraz ustiga qurilgan. Ya'ni "Nur borki, soya bor" deganda, jamiyatda shunday insonlar borki, orqasida tirkak bo'lib turuvchi "ishonganlari" bor.

Asardagi Sirojiddin, Shoira, Zuhra, Abduvohid kabi bir qancha personajlar voqealar rivojiga o'z hissasini qo'shib ijodkorning obraz yaratish mahorati o'ziga xosligini isbotlab turadi.

Xulosa qilib aytganda, O'tkir Hoshimov "Nur borki, soya bor" asarida inson qalbi va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'ziga xos uslubda yoritgan. Yozuvchi yaratgan qahramonlar real hayotdan olingandek tuyuladi. Ularning dardlari esa, har bir o'quvchiga tanish. O'tkir Hoshimovning asarlarini o'qigan inson undagi qahramonlarni unutmadi, asarni o'qiganda

beixtiyor ular bilan birga bo'ladi. Chunki uning obraz yaratish uslubi o'zining hayotiyligi, samimiyligi bilan o'quvchiga o'z ta'sirini o'tkaza oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari, Toshkent, Akademnashr, 2018, 480 b.
2. O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. Toshkent, 2017, 576 b.
3. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=6>